



TEXNOLOGIK TA'LIM YO'NALISHI TALABALARINING GRAFIK KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH

Turayev Doniyor Amirovich

Termiz davlat pedagogika instituti

Tehnologik ta'lif kafedrasi o'qituvchisi

<https://www.doi.org/10.5281/zenodo.10426902>

ARTICLE INFO

Received: 15th December 2023

Accepted: 22th December 2023

Online: 23th December 2023

KEY WORDS

Kasb, kompetensiya, tehnologiya, talabalar, axborot, mutahassis, ishlab chiqarish, tadqiqot, muhandislik, kompyuter grafikasi.

ABSTRACT

Ushbu maqolada Chizma geometriya va muhandislik grafikasi fanini o'qitishda talabalarining grafik kompetentligini rivojlantirish metodikasini takomillashtirishga oid mulohazalar bayon etilgan.

Talabalar grafik kompetentligini rivojlantirish tizimi ob'ektiv va sub'ektiv shart-sharoitlar, tashqi va ichki omillarga bog'liq. Har qanday pedagogik tizim tarkibida ikkita tushuncha aniq ko'rindi: Didaktik vazifa va uni hal qilish texnologiyasi. Didaktik vazifa tuzilishida istalgan inson faoliyati sohasidagi kabi vaziyatlar (sharoitlar) va mavjud axborot (faoliyat mazmuni)ga asoslangan maqsadlar aks etadi.

Texnologik ta'lif talabalarini tayyorlashning didaktik imkoniyatlarini o'rganish borasidagi tadqiqotimiz maqsadi texnik tayyoragarlik jarayonida o'quvchilar grafik faoliyatini tashkil etish uchun texnologik ta'lif talabalarning grafik kompetentliklar mazmuni (tarkibiy qismlari) ko'rib chiqilgan axborotlar vositasida shakllantirish hisoblanadi.

Tadqiqotimizda o'quv materiallarining mazmuni talabalarni kasbiy-pedagogik faoliyatga tayyorlashning har bir bosqichida grafik va o'quv-konstrukturlik faoliyatini integratsiyalash yo'li bilan belgilanadi.

Texnologik ta'lif talabalarining grafik kompetentligini rivojlantirish jarayoni tizimli-faoliyatli yondashuv asosiga quriladi. Uning ijodiy faoliyati, ya'ni grafik faoliyatda ko'nikma va malakalaridan ijodkorona foydalanish tajribasida ixtirochilik sifatlarini o'rni juda beqiyos. Ixtiroching ijodiy loyihibaviy-konstrukturlik faoliyati mantiqiy mazmunni konstruktsiyalash uchun asos bo'lib xizmat qildi.

Konstruktoring faoliyati quyidagi bosqichlarga ajratilgan:

1. Ob'ektni yaratish kontseptsiyasi - loyihalashda konstruktsiyalash bosqichi bo'lib, unda ob'ektning dastlabki modeli aqliy yoki matn bilan, grafik vositalar yoki eksperimental tarzda amalga oshiriladi; buning natijasi texnik qurilmani konstruktsiyalash va texnologik metod ishlab chiqish uchun asos bo'ladi.

2. Konstruktsiyalash – loyihalash bosqichi bo'lib, unda mazmunni ifodalash texnik buyum detallari bilan aniqlanadi. Konstrukturlik jarayonida konstruktor faqat aqliy



faoliyatining samarasi bo'lgan, hali mavjud bo'lмаган narsani aks ettirishi kerak. Bu texnika sohasidagi ijodiy muhandislik vazifasidir.

Sintez – buyumni amalda qo'llash uchun tayyorlash texnologiyasi va texnik qurilmalarda konstruktorlik g'oyalarini ijodiy birlashtirishdir.

“Loyihalash” va “konstruktsiyalash” atamalarini yoritishda, ularni birga ko’rib chiqilishi kerakligi va bir tushunchani boshqasidan ajratmaslik maqsadga muvofiq. Aslida “konstruktsiyalash” atamasi qurish, “loyihalash” esa – loyiha, g’oyani yaratishni bildiradi, konstruktsiyalash loyihalashni o’z ichiga oladi. Konstruktsiyalash faoliyatida texnik qurilmalarni yaratishda loyihaviy-konstrukturlik faoliyatni e’tiborga olish kerak.

Yuqoridagilarni tahlil qilib, loyihalash va konstruktsiyalash bu ijodiy, murakkab va o'zaro bog'liq bo'lgan jarayon deb hisoblash mumkin. Loyihalash – bu muhandislik faoliyatini ko'rinishi bo'lib, biror konstruktsiyani tayyorlash uchun loyiha ishlab chiqish bilan bog'liq, konstruktsiyalash esa – loyihalash bosqichi bo'lib, konstruktsiya variantlarini yaratish, hisob-kitoblar, operatsiyalarni bosqichma-bosqich bajarishni o'z ichiga oladi.

Texnologik ta'limgizning grafik kompetentligini rivojlantirish jarayonini tahlil qilish tadqiqot ishimizning asosini tashkil etadi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, bo'lajak texnologik ta'lim talabalarini tayyorlashning sifat va samaradorligini oshirish uchun davlat ta'lim standartlari, o'quv rejasи va dasturlarining tizimliliги hamda izchilligiga e'tibor qaratishni tadqiqotimizning asosiy vazifalaridan biri deb belgiladik. Shunga ko'ra, tadqiqotni olib borishda ilmiy izlanish ob'ekti sifatida tanlangan ta'lim yo'nalishining umumiy mohiyatiga tayangan holda talabalarning grafik kompetentligini rivojlantirishda e'tibor qaratilishi zarur bo'lgan jihatlar to'g'risidagi tasavvur oydinlashtirib olindi.

Texnologik ta'lif umumiy o'rta ta'lif maktablari, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari uchun bakalavriat ta'lif yo'nalishi bo'yicha pedagogik kadr tayyorlash jarayonida foydalaniladigan fanlar, pedagogik faoliyat vositalari, usullari, metodlari; O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi va tarmoq ilmiy-tadqiqot institutlarida hamda mustaqil tadqiqotchi sifatida ilmiy-pedagogik tadqiqot ishlari bilan shug'ullanish; ommaviy axborot vositalari, davlat boshqaruvi organlari, boshqa davlat va nodavlat muassasalarida kasbiy faoliyat yuritish kabi kompleks masalalar majmuasini qamrab oladi.

Texnologik ta'limi yo'nalishi bo'yicha bakalavrilar kasbiy faoliyatining ob'ektlari:

- ta'limgarayoni; - o'qitishning pedagogik texnologiyalari va metodlari;
 - ta'limning nazariy masalalari; - o'qitish metodikasi;
 - loyihalashtirish asosida o'quv jarayonini boshqarish texnologiyalari, ma'ruza, amaliy va laboratoriya mashg'ulotlarini loyihalashtirish va tashkil etish jarayoni, shaxsiy va kasbiy axborot maydonini shakllantirish jarayoni, mактабдан ташқари та'lim muassasalari ta'limtarbiya jarayoni; ta'lim sohasidagi muammolar va ularning yechimlarini topishni tashkil etish jarayoni; ta'limni boshqarish va pedagogik jarayonni tashkil etish;
 - mos ixtisoslik bo'yicha ilmiy-tadqiqot jarayonlari, ma'naviy-ma'rifiy targ'ibot ishlari jarayonlari.

Yo'nalish bo'yicha fan, texnika va texnologiyalarning zamonaviy yutuqlari, kadrlar buyurtmachilari talablaridan kelib chiqqan holda bakalavr larning kasbiy faoliyat sohalarida qo'shimcha va o'zgarishlar bo'lishi mumkin.



Texnologik ta'lif yo'naliishi bo'yicha talabalarining kasbiy faoliyatini quyidagilarni qamrab oladi:

- umumiy o'rta ta'lif maktablarida texnologiya ta'limi fanlaridan, o'rta maxsus kasbhunar kollejlarida kasbiy fanlardan dars berish, kasb hunar ta'lif muassasalarida o'quv ustasi bo'lib ishlash;
- umumiy o'rta ta'lif maktablari, kasb-hunar kollejlaridan tashqari muassasalarda tarbiyachi bo'lib ishlash;
- ta'lif tizimida kabinet mudiri, laborant va unga tenglashtirilgan lavozimlarda ishlash;
- texnologik ta'lif o'qituvchisi mos ta'lif yo'naliishlar bo'yicha ta'lifni amalga oshiruvchi vazirliklar, uning tarmoq boshqarmalari va muassasalarida metodist bo'lib ishlash;
- pedagogika va texnika fanlar yo'naliishidagi ilmiy-tadqiqot tashkilotlarida kichik ilmiy xodim bo'lib ishlash;
- umumiy o'rta ta'lif muassasalarida va maktabdan tashqari ta'lif muassasalarida ishlash;
- mahalliy o'z-o'zini boshqarish organlari hamda joylardagi ma'naviyat va ma'rifat markazlarida ishlash.

Tadqiqotlar va izlanishlar jarayonida texnologik ta'lif talabalarining kasbiy rivojlanishi uchun va kasbiy faoliyatida zarur bo'ladigan kompetentsiyalar aniqlandi. Texnologik ta'lif talabalarining kasbiy rivojlanishi uchun kasbiy faoliyatida zarur bo'ladigan kompetentsiyalar majmui keltirilgan.

Texnologik ta'lif yo'naliishi bo'yicha bakalavrular kasbiy faoliyatlarining turlari: pedagogik; ilmiy-tadqiqot; ma'naviy-ma'rifiy; tashkiliy-boshqaruv; ishlab chiqarish faoliyati. Yo'naliish bo'yicha fan, texnika va texnologiyalarning zamonaviy yutuqlari, kadrlar buyurtmachilari talabalaridan kelib chiqqan holda bakalavrlarning kasbiy faoliyat sohalarida qo'shimcha va o'zgarishlar bo'lishi mumkin. Texnologik ta'lif yo'naliishi talabalarining malakaviy modeli asosida texnologik ta'lif mazmunini modernizatsiya qilishda pedagogik jamoatchilikning qiziqishini oshirish, ta'lif maqsadlari va natijalarini qayta ko'rib chiqish masalasi ko'plab ilmiy-pedagogik tadqiqotlarda yoritilgan. Tadqiqot natijalariga ko'ra, bitiruvchining kompetentli modeli ta'lifning amaliy yo'naliishini, shu jumladan shaxsiy va faol tomonlarini, ta'lifning insonparvarlik yo'naliishini mustahkamlaydigan kompetentli yondashuv asosida shakllantiriladi. Kompetentli yondashuv natijaning operatsional tomoniga e'tiborni kuchaytirishga, ta'lif mazmunini sezilarli darajada kengaytirishga imkon beradi.

References:

1. O'zbekiston Respublikasining "Ilm-fan va ilmiy faoliyat to'g'risidagi"gi (2019 yil 29 oktabr) Qonuni // <https://lex.uz/doc/4571490>.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi (2017 yil 7 fevral) Фармони // https://lex.uz/pages/getpages.aspx?list_id=3107036# 3109146
3. Nishanova S. "Komil inson tarbiyasi", Toshkent, "Istiqlol", 2003 y. 2. O'. Tolipov va boshqalar "Pedagogik texnologiya: nazariya va amaliyot". T., "Fan", 2005 y.
4. Vyazankova V.V. Axborot va ta'lif muhit shartlarida tayyorlanishning texnik yo'naliishlari bo'yicha bakalavranlarning grafik kompetensiyasini shakllantirish // Fan va



ta'limming zamonaviy muammolari. - 2021 yil - 2-son;

URL: <https://science-education.ru/ru/article/view?id=30663> (kirish 09.12.2022).

5. Turayev Khumoyiddin Abdugafforovich, Sattarov Shavkat Yuldashevich, Tashkuziyev Bakhridin Muhiddinovich, Turayev Doniyor Amirovich - Project Development Of Competence Of Future Drawing Teachers Using Geometric Reflection Techniques- Project Development Of Competence Of Future Drawing Teachers Using Geometric Reflection Techniques. 13791-13800. 2019/12/31.
6. Choriev, R., & Kucharov, S. (2023). METHODOLOGY OF USING ELECTRONIC TEXTBOOKS IN THE FIELD OF TECHNOLOGICAL EDUCATION. Science and innovation, 2(B1), 371-373.
7. Choriev, R., & Kucharov, S. (2023). OPPORTUNITIES OF INFORMATION TECHNOLOGIES IN IMPROVING THE TRAINING OF FUTURE TECHNOLOGY TEACHERS. Science and innovation, 2(B4), 152-155.
8. Odinayev A., Qalandarov R., Xolmatov B. PROBLEMS OF IMPROVING THE TECHNOLOGY OF REPAIRING BLOCKS AND CYLINDER LINERS //CENTRAL ASIAN JOURNAL OF MATHEMATICAL THEORY AND COMPUTER SCIENCES. – 2023. – Т. 4. – №. 1. – С. 97-99.
9. Rozimurod, Q., Kocharovich, O. A., & Ogli, Y. S. F. (2023). ABOUT VIBRATION NOISE PROBLEMS IN MACHINERY AND MACHINES USED IN COTTON GINNING FACTORIES (CCP). Science and innovation, 2(A4), 220-226.
10. Гадаймуратов, Ш. М. (2022). БЎЛАЖАК ТЕХНОЛОГИК ТАЪЛИМ ЎҚИТУВЧИЛАРИНИНГ КАСБИЙ КОМПЕТЕНТЛИГИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ. TALQIN VA TADQIQOTLAR, 5.
11. Dusyarov, X. C., Odinayev, A. K., & Kucharov, S. A. (2021). CRITERIA FOR ASSESSING STUDENT KNOWLEDGE IN TECHNOLOGY CLASSES. Academic research in educational sciences, 2(3), 1168-1173.
12. Chorshanbiyevich D. X. Effectiveness of ecological laboratory work in the teaching of physics in connection with labor education //INTERNATIONAL JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE & INTERDISCIPLINARY RESEARCH ISSN: 2277-3630 Impact factor: 7.429. – 2022. – Т. 11. – №. 04. – С. 93-95.
13. Дусяров А. С., Файзуллаев И. М., Камолов Б. И. ОПРЕДЕЛЕНИЕ ТЕПЛОВЫХ ПОТЕРЬ ПОМЕЩЕНИЙ С ИНСОЛЯЦИОННЫМИ ПАССИВНЫМИ СИСТЕМАМИ СОЛНЕЧНОГО ОТОПЛЕНИЯ //Вестник науки и образования. – 2020. – №. 22-3 (100). – С. 8-12.
14. Дусяров Х. Ч. Квалификационные требования специалистов к содержанию высшего образования //Педагогическое образование и наука. – 2019. – №. 5. – С. 7-8.
15. Тураев Дониёр Амирович ДИДАКТИЧЕСКИЕ ВОЗМОЖНОСТИ И МОДЕЛЬ РАЗВИТИЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ ГРАФИЧЕСКОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ БУДУЩЕГО УЧИТЕЛЯ ТЕХНОЛОГИЧЕСКОГО ОБРАЗОВАНИЯ Modern Scientific Research International scientific journal (ISSN: 1817-0315) Journal 2023 Volume 1 Issue 3
16. Turayev Doniyor Amirovich BO'LAJAK TEKNOLOGIK TA'LIM O'QITUVCHISINING KASBIY GRAFIK KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHNING DIDAKTIK IMKONIYATLARI VA MODELI Xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari to'plami 19-20-may 2023-yil